

1877-1878 yillardagi Rus-Turk urushining Buxoro-Afg'oniston munosabatlariiga ta'siri

Mahmud Zaynievich Orziev
mahmudorziyev@gmail.com
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1877-1878 yillarda Rossiya imperiyasi va Usmonli turk sultanati o'rtasidagi urush davrida xalqaro munosabatlarda Buxoro va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro munosabat, siyosat, ziddiyat, imperiya, targ'ibotchi, elchi, ittifoq, hamkorlik, Sharq musulmon dunyosi

The impact of the Russo-Turkish war of 1877-1878 on Bukhara-Afghanistan relations

Mahmud Zaynievich Orziev
mahmudorziyev@gmail.com
Bukhara State University

Abstract: This article analyzes the relations between Bukhara and Afghanistan in international relations during the war between the Russian Empire and the Ottoman Empire in 1877-1878.

Keywords: International Relations, Politics, Conflict, Empire, Propagandist, Ambassador, Alliance, Cooperation, Eastern Muslim World

Buxoro amirligining Rossiya imperiyasiga qaram davlatga aylantirilishi (1868 va 1873 yil shartnomalari) natijasida amirlik faol tashqi siyosat olib borish huquqidan mahrum etilgan. Ushbu hol Buxoro amirligining Sharq musulmon dunyosida siyosiy etakchilardan biri sifatidagi nufuziga putur etkazgan. XIX asrning 70-yillaridan boshlab Buxoroning mintaqada va xalqaro munosabatlardagi o'rni, roli ham pasaygan. Shu vaqtga qadar Usmonli turk sultonlari O'rta Osiyodagi siyosiy-diplomatik munosabatlarda asosan Buxoro amirligiga tayangan bo'lsa, endilikda mintaqadagi asosiy hamkori sifatida Afg'oniston ko'zga tashlana boshlangan. A.D. Vasilev keltirgan ma'lumotlarda, XIX asrning 70-yillaridan boshlab, mintaqada Rossiya imperiyasiga qarshi Usmonli turk davlatining asosiy hamkori Avg'oniston bo'lib, turk targ'ibotchilar Buxoroga Afg'oniston orqali kelib, musulmonlarning birdamligi,

hamkorligi targ‘iboti orqali Buxoro, Xiva, Turkistonni ozod qilish g‘oyalarini targ‘ib qila boshlaganlar[3, 24].

XIX asr 70-yillarida Buxoro va Afg‘oniston davlatlari o‘rtasida ziddiyatli bo‘lib, ular mintaqaviy va xalqaro ahamiyat kasb etgan. Hududiy xarakteri Amudaryo chap sohilidagi o‘zbek bekliklari mojarosi bo‘lib, mustamlaka jarayonida bu ziddiyatlar xalqaro munosabatlar darajasiga qadar o‘sib chiqqan. Rossiya imperiyasi uchun Buxoro amirligini nazoratda tutib turish, Angliya davlatini O‘rta Osiyoga tajovuzini oldini olish maqsadida Afg‘oniston davlati bilan munosabatlarni yaxshilash muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu davrda Afg‘oniston hukumdori Sheralixon va Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman o‘rtasida iliq munosabatlar vujudga kelgan. Ikki o‘rtada o‘zaro yozishmalar, xat almashish jarayonlari 1870 yilning 28 martidan, 1879 yil SHeralixon vafot etgunga qadar davom etgan[9, 243]. Bu 1877-1878 yillardagi rus-turk urushida Afg‘onistonni neytral tutib turish imkonini bergen. Afg‘onistonda ingliz-turk ittifoqi Sheralixon o‘rniga yangi ingliz siyosatiga moyil shaxsni taxtga chiqarish, Buxoroda ruslarga qarshi ittifoqini vujudga keltirishga harakat qilgan. Jumladan, 1875 yil Buxoro amiri Muzaffarxon Samarcandda qochoq sifatida yashayotgan Sheralixonning jiyani Abdurahmonxонни Avg‘onistonga qo‘yib yuborishni Turkiston general-gubernatoridan iltimos qilgan[1, 417]. Buxoro amirining bu kabi iltimosi Rossiya siyosiy ma’murlarida shubha uyg‘otishi tabiiy edi. Ikkinchisi tomondan esa, Buxoro amiri tashqi siyosiy masalalarda Rossiya ijozatisiz faoliyat olib borishi ta’qilangan bo‘lsada, 1874 yilda bosib olingan Maymana bekligini o‘ziga qaytarilishini talab qilgan. Buxoro amiri Maymanani o‘z vassali deb Afg‘onistondan bu beklikni 1875 yilda qaytarishni talab qilgan va Rossiya imperiyasini Afg‘oniston bilan urushtirishga uringan. Bu hol ingliz-turk ittifoqini Afg‘oniston va Buxoroni birlashtirish orqali Rossiyaga qarshi kurash olib borish rejasini yanada qiyinlashtirgan[4, 22].

Rossiya imperiyasi ma’murlari Turkiya bilan kutilayotgan urushda Angliyani neytral holda tutib turish muhim bo‘lib, Turkiston general-gubernatorligi va Avg‘oniston o‘rtasida yaqin aloqalar buning garovi bo‘lgan. SHeralixonning Rossiyaga qarshi ittifoqqa qo‘shilmasligi sababi inglizlar tomonidan Afg‘onistonning Kelat, Kvetta hududlarining egallanishi bo‘lgan. Inglizlar siyosatida nozik nuqtasi Hindiston bo‘lib, Buxoroning Rossiyaga qaramligi, Avg‘onistonning ruslarga moyilligi Rossiyani Hindiston chegarasiga tezda yaqinlashish imkonini bergen va inglizlar ruslarning ehtimoliy hujumlari xavotirga tushgan[5, 67].

1876 yildan so‘ng Kobul orqali Buxoroga ko‘plab turk emissarlari kirib kela boshlagan. Bu rus-turk urushi arafasida ayniqla kuchayganligi tarixiy adabiyotlarda qayd etilgan. 1877 yilning aprel oyida Turk sultonini elchilarini Kobulga kelib, Avg‘oniston bilan ittifoqlikda ruslarga qarshi kurashish, inglizlardan yordam olishni taklif qilgan. Ammo, bu vaqtida Sheralixonning Kaufman bilan siyosiy va diplomatik

munosabatlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, turklarning takliflari va niyatlaridan Sheralixon K.P. fon Kaufmanni ogohlantirib turgan[10, 120].

Kobulga etib kelgan va katta tantana bilan kutib olingan Usmonli turk sultanati elchisi Ahmad Xulusi afandi Sheralixonga Usmonli turklarning ruslarga qarshi “g‘azovot” urushini boshlaganliklari, barcha musulmonlar bunda ishtirok etishi zarurligi, Avg‘oniston amiri Buxoro davlati bilan birgalikda kurashga qo‘shilishi lozimligini ta’kidlagan[9, 255]. Taniqli olim N.A. Xalfin Ahmad Xulusi afandi Avg‘oniston hukumdoriga Usmonli turk sultoni maktubini olib kelganini qayd etgan. Maktubda, Usmonli turk sultoni SHeralixonni inglizlar bilan ittifoqlidka ruslarga qarshi kurashish, Buxoro va Xivani ruslardan ozod qilishda hamkorlik taklif qilgan[8, 41]. Ahmad Xulusi afandining Kobuldagagi faoliyati xususida A.D.Vasilev ham ma’lumot berib, 1877-1878 yillardagi Rossiya-Turkiya urushi davrida barcha musulmonlarni birlashtirish zarurligi, urushdan foydalanim Rossiyadan Buxoro va Xivani ozod qilish lozimligini, bu boradagi ishlarda avg‘onlarni turkmanlar va buxoroliklar qo‘llab-quvvatlashi[3, 25] bilan bog‘liq ma’lumotlarni keltirib o‘tadiki, Buxoro va raqib afg‘onlarni ittifoqqa birlashtirishga urinish sodir bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Buxoroda Usmonli turk targ‘ibotchilari turli mish-mishlarni tarqatish orqali Rossiya imperiyasiga qarshi kayfiyatni shakllantirish bilan ham shug‘ullanganlar. 1877 yilda tarqatilgan xabarlarning birida, inglizlarning ruslarga qarshi 100 ming avg‘on qo‘shinlarini quollantirganliklari, shuningdek, Peshovarda 35 ming ingliz qo‘shini turganligi, Buxoro amiri Turkiya bilan tuzilgan shartnomani buzadigan bo‘lsa, bu qo‘shinlar Buxoroni istilo qilib, uni Avg‘oniston davlati tarkibiga qo‘shishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni tarqatish bilan shug‘ullanganliklarni keltirish mumkin[2]. SHuningdek, 1877 yilda Turk sultoni elchilari Kobul va Buxoroga bir necha bor kelgan bo‘lib, Buxoro, Avg‘oniston davlatlarini inglizlar bilan hamkorlik qilishga, munosabatlarni yaxshilashga chaqirgan[7, 108]. Bu rus-turk urushi davrida O‘rta Osiyoda Buxoro-Afg‘on ittifoqi orqali Rossiya imperiyasiga qarshi yana bir front ochishga tayyorgarlik ko‘rilgan deb, xulosa qilishga asos bo‘lib hisoblanadi.

Buxoro amirligini Rossiya imperiyasiga qo‘shib olish tarafdori bo‘lgan D.N. Logofet ma’lumotlarida, Buxoroni Rossiyaga qaram ekanligi, rus-turk urushi davrida Avg‘onistonning Rossiyaga moyil siyosati va keyinchalik boshlanib ketgan ingliz-avg‘on urushi davrida SHimoliy Afg‘oniston (Janubiy Turkiston), ya’ni, sobiq Buxoro amirligiga tegishli bo‘lgan o‘zbek bekliklari hududlarini ham Rossiya imperiyasi protektoratiga qo‘shib olish imkonini bo‘lganligini ta’kidlab o‘tgan[6, 182].

Xulosa qilib aytish mumkinki, 1877-1878 yillardagi rus-turk urushi arafasida ingliz-turk ittifoqi Buxoro va Afg‘oniston davlatlari garchi ziddiyatli munolsabatlarda bo‘lsada, ularni Rossiya imperiyasiga qarshi o‘zaro ittifoq tuzib O‘rta Osiyoda yangi urush fronti ochishga harakat qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Орзиев М.З. Материальная поддержка типографии, созданной в бухарском эмирата // Россия-Узбекистон: Международные образовательные и социально-культурные технологии: Векторы развития. – Магнитогорск. 2019. – С. 58-60.
2. Orziyev M.Z. History of Border Conflicts Between the States of Bukhara and Afghanistan in the Second Half of the 18th Century // availabde onlays at www.cajssh.ctnralasianstudiyes.org Cetnral Asian journal of social sciens and history journal homepage: // www.http:// cajssh.centralasianstudies. org/indeks.php/CASSH. – P. 115-123.
3. Orziyev M. Россия протекторати ўрнатилиш жараёнида бухоро амирлиги ва усмонли турк давлати муносабатлари . // Ўтмишга назар 2021. № 1. – Б. 47-51.
4. Orziyev M.Z. “Туркистон тўплами” да афғон туркистони бекликларининг сиёсий тарихига оид айrim маълумотлар (XVIII-XIX асрлар) // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хива 2021. 4-сон. – Б. 136-140.
5. Orziyev M. Афғонистон давлатининг ташкил топиши ва xvii аср иккинчи ярмида бухоро-афғон муносабатлари // ҚарДУ хабарлари: Илмий-назарий, услубий журнал. Maxsus сон. 2021. – Б. 99-101.
6. Orziyev M. On the aspects of zahiriddin muhammad babur's political activity related to bukhara // European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 8, August 2021, ISSN: 2660-5562. P. 84-86.
7. Orziyev M. Амир темур сиёсий фаолияти ва бухоро уламолари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. № 10. – Хива. 2021. – Б. 354-357
8. Orziyev M. On the role of bukhara in the development of science and culture during the reign of amir temur and the temurids // ACADEMICIA an Internatil Multidisciplinary Researrch journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) -Vol. 11, Issue 3, March 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. – P. 1-6.
9. Орзиев М.З. Мўғуллар истилоси ва темурийлар даврида динлараро муносабат // Бухоро “Дурдана” нашриёти 2018. – 51 б.
10. J.Majidov. Transport and road construction issues in Bukhara // Academicia An International Multidisciplinary Research Journal
11. J.Majidov. XX аср 70-йилларининг 2-ярмида Бухорода телефон хизмати хусусида // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси
12. M.Orziyev, J. Majidov. XX asr boshlarida Eron matbuotining Turkiston va Buxoroga tarqalishi: Turkiston to'plami materiallari asosida. Хоразм Маъмун академияси -2020 йил 2 сон
13. J.Majidov XIX asr oxiri XX asr boshlarida Amudaryo flotiliyasi faoliyati tarixidan (Turkiston toplami materiallari asosida) // Ўтмишга назар илмий журнали ISSN 2181-9599 2020. -85-90 бет

14. MZ Orziyev. The second world war and the unopened afghan front. Scientific reports of Bukhara State University 4 (3), 243-249.
15. MZ Orziyev, AK Akhmatov. The channel from Sirdarya to bukhara: truth or fraud. Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 234-239
16. MZ Orziyev, BB Yunusova. Difficult ways edifying education. European conference on education and applied psychology, 72-77.
17. МЗ Орзиев. Материальная поддержка типографии, созданной в бухарском эмирате. Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные ...
18. JJ Majidov. Glimpses from the history of the amudarya flotilla at the end of 19th-beginning of the 20th century (on the basis of the proceedings of " Turkestan collection"). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 2 (2)
19. MJ Jalilovich. Transport and road construction issues in bukhara academicia an international multidisciplinary. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 1 (1)
20. J Majidov. XX аср 70-йилларининг 2-ярмида Бухорода телефон хизмати хусусида. Academicia an international multidisciplinary research journal
21. J Majidov. Наземный и воздушный транспорт в СССР. Academicia an international multidisciplinary research journal 2020. 1.
22. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 1003-1009
23. Elov, Z. S. (2022). O ‘smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta’siri. Science and Education, 3(3), 442-447.
24. Jo’Rayeva, Z. A., & Maxmudova, Z. M. (2022). Sudga oid psixologik ekspertizani tashkil qilish va uni o’tkazishning o’ziga xosligi. Science and Education, 3(4), 1916-1922.
25. Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi (o`quv qo`llanma) <https://library.sammi.uz/Library/> 1 (1), Ўзбекистон
26. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. Авезов О.Р. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.
27. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. “Durdon” nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.
28. Olimov L.Ya. Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, “Durdon”. 2019. – 460.
29. Olimov, L. (2020). ЛЯ психологической защиты: Психологик ҳимоя механизмларининг ижтимоий психологик хусусиятлари. центр научных публикаций (buxdu. uz), 2(2).

30. Qizi, S. M. Z., & Sattorovich, E. Z. (2022). Priorities of psychological services in preschool educational organizations. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 900-904.
31. UFF Elov Ziyoddullo Sattorovich. Suicide – as a global problem facing humanity. web of scientist: international scientific research journal 1 (Volume 3 ...
32. Yarashovich, O. L. (2020). O'smirlarning ba'zi dinamik xususiyatlari kontekstida kurashish xatti-harakatlarini o'rganish xususiyatlari. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 1(1).
33. ZM Maxmudova, AZJKYK Olimov, L Ya. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya.“Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021
34. қизи Расулова, М. Б., & Олимов, Л. Я. (2022). Ўсмир шахси ривожланишида аҳлоқий нормалар муаммосининг ҳозирги замон психологиясида тадқиқ этилиши. таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали, 2(3), 204-207.
35. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.
36. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизmlари ва копинг хулқ-автор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизmlари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.